

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar va geografiya
Fakulteti dekani:**

_____ dots. V.Azizov
“ _____ ” _____ 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”
kafedra mudiri**

_____ dots. B.Baratov
“ _____ ” _____ 2012 yil

TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi
bitiruvchisi**

Inobatova Elmira Nazirjonovna

**Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik
muhitining shakllanishi va rivojlanishi
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

g.f.n. dots. X,Miraaxmedov

**MAVZU: FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA TADBIRKORLIK
MUXITINI SHAKLANISHI VA RIVOJLANISHI**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. Tadbirkorlik muhitini iqtisodiy geografik o'rganishning nazariy va uslubiy masalalari	
1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni	6
1.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi	13
1.3. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	19
 II BOB. Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muxiti shakllanishining shart sharoitlari va rivojlantirish istiqbol yo'nalishlari	
2.1. Farg'ona iqtisodiy rayoni iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar	28
2.2. Farg'ona mintaqasida qulay tadbirkorlik muhitining shakllantirilishi...	34
2.3. Istiqbolda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	45
XULOSA.....	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish eng avvalo ichki bozorni mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldirish muammosining yechimi, mehnat resurslari bandligi hamda aholi daromadlarini oshirish omili sanaladi. Tadbirkorlik tuzilmalari davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni, katta moliyaviy resurslarsiz o'zlari yangi ish joylari barpo etishlari, ichki bozorda tovarlar tanqisligini kamaytirishlari, narx barqarorligi, raqobat muhitini qaror toptirishda muhim o'rin egallashlari hamda qishloq xo'jaligi mutloq ustunlikka ega bo'lgan ayrim hududiy birliklarda mahalliy byudjetlar daromad qismlarining asosiy manbaalari bo'lishliklari bilan o'zining kutilgan samarasini bermogda.

Ayni vaqtda mamlakat Prezidenti o'zining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" nomli ma'ruzasida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish vazifalariga to'xtalib, quyidagi jihatga alohida e'tibor qaratadi: "SHu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati muhitining qanday holatda ekani, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va bu faoliyatning amaldagi rivojlanish sur'atlari barcha darajadagi hokimlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi darkor"¹.

Mohiyatan, tadbirkorlik faoliyati birinchi galda mahalliy iste'molni qondirishga hamda hududiy birliklarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltiriladiki, bu uni mintaqalar bo'yicha rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

.... **Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Ayni paytda – shunga e'tibor berishingizni so'rayman – aholi jami daromadlarining 47 foizi**

¹ Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". // 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. – T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil, 22 yanvarь.

tadbirkorlik faoliyatidan olinmoqda.¹

Ayni shu jihatdan ham xususiy tadbirkorlikni shakllantiruvchi tadbirkorlik muxitini mintaqalar miqyosida tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Mazkur tadqiqot ishining ob'ektini Farg'ona iqtisodiy rayoni tadbirkorlik muhiti va tuzilmalari faoliyati tashkil qiladi.

Ishining predmeti tadbirkorlikning hududlar va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishidagi qonuniyatlar, xususiyatlar hamda ularning hududlar bo'yicha samaradorligini o'rganish, ularni iqtisodiyot birliklaridagi o'rni va rivojlanishi tahlili kabilarda gavdalantirilgan.

BMIning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishi oldidagi maqsad tadbirkorlik muhitining hududiy rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammolar yechimini aniqlash, ular yechimi bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning metodologik asoslari va tadqiqot usullari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishga oid qonun xujjatlari, mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish tmoyillari, Prezident asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hamda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qonuniyat va tamoyillar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida taqqoslash, statistik, tizim-tarkib, tahlil, va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Yuqoridagi mulohazalarda ta'kidlanganidek, iqtisodiyotda, ayniqsa, hududlar xo'jaligida tadbirkorlikning ta'sir doirasi katta va istiqbolda bu ta'sir doirasi oshib boradi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil 19 yanvardagi 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli ma'ruzasi.

SHundan kelib chiqib, tadbirkorlik tuzilmalaridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, ularning samaradorlik darajasini oshirish shu kunning davr talabi ekanligini inobatga olgan holda hududlar miqyosida bu tizimni rivojlantirish, undagi muammolar va yechimini kutayotgan vazifalarni tadqiq etish orqali ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliy xarakterga ega hisoblanadi.

Ishning tarkibi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, 6 ta paragraf, xulosa,ta nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning mohiyatini to'laqonli ochish maqsadida bir qator jadval va diagrammalar berilgan.

“Tadbirkorlik muhitini iqtisodiy geografik o'rganishning nazariy va uslubiy masalalari” deb nomlangan birinchi bobda tadbirkorlik sub'ektlari haqida tushuncha, nazariy masalalar, mazkur sektorning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, jahon amaliyoti, O'zbekistonda tashkil qilinishi va rivojlanishi hamda u bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy me'yorlar, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kabi masalalari yoritilgan.

“Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muxiti shakllanishining shart sharoitlari va rivojlantirish istiqbol yo'nalishlari” deb nomlangan ikkinchi bobda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muxiti shakllanishi va rivojlanishi tahlili, hududiy xususiyatlari, qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish masalalari, kichik biznesni tashkil etish va rivojlantirishning istiqbol yo'nalishlari yoritilgan.

I BOB. Tadbirkorlik muhitini iqtisodiy geografik o'rganishning nazariy va uslubiy masalalari

1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni

Iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyillari ustun xarakterga ega bo'lgan bugungi kunda respublikada mulk va unga egalik huquqining daxlsizligi, erkin va mustaqil xo'jalik faoliyatining ta'minlanishi mulkdorlar qatlamlarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligining oshishida o'ziga xos mavqega ega. Bu haqda mamlakat Prezidenti I.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida alohida to'xtalib, jumladan shunday deydi: «Avvalambor, kishilarning ongini, hayot tarzini shakllantiradigan ijtimoiy munosabatlar butunlay yangicha ma'no-mazmun kasb etmoqda. Mulkdor va tadbirkorlarning, kichik va o'rta biznes egalarining nufuzi va ta'siri kun sayin ortib bormoqda.

Biz o'rta sinf deb ataydigan bu ijtimoiy qatlam timsolida, mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, yurtimizning taraqqiyoti va gullab-yashnashi yo'lida asosiy tayanch bo'ladigan yangi mulkdorlar sinfi shakllanmoqda»¹.

Bu jihatdan ayniqsa hozirgi davrda jamiyatda iqtisodiy va mulkiy tarkibni samarali tashkil qilish, mulkdorlar sinfining yangi qatlamlarini vujudga keltirishning muhim sharti, bu xususiy tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishdir. Mazkur tuzilmalar:

- raqobat muhiti tobora rivojlanib borayotgan bozor kon'yukturasiga tez moslashuvchanligi;
- iqtisodiyotda milliy (xususiy) investitsiya qatlamining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etishi;

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. //Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Т., «Ўзбекистон», 2003 й. 16-бет.

- aholi ijtimoiy bandligi darajasini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari barpo etishdagi ahamiyati;
- aholining qo'shimcha bandligi hamda qo'shimcha daromad manbai sifatidagi ijtimoiy roli;
- bu tizimda erkin raqobat munosabatlarini yo'lga qo'yish va takomillashtirishning qulayligi;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi tizimida yangi qatlamlar vujudga kelishining bosh omili ekanligi kabi sifatleri bilan ko'zga tashlanadi.

Aynan shu sifatlariga ko'ra O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar tizimidagi ustivor jabha sifatida e'tirof etilib kelinmoqda. Buni mamlakat **Prezidentining** 2012 yil 19 yanvardagi 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli **ma'ruzasida ta'kidlab o'tilgan quyidagi mulohazalardan ham yaqqol kuzatish mumkin:** "Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizidan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizidan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi."¹.

Tadbirkorlikning ustuvor darajadagi mavqeni egallashi va ayni paytda davlatning tarkibiy-iqtisodiy siyosatida ustivor bo'g'in sifatida baholanishi deyarli barcha mamlakatlar uchun xos bo'lgan umumiylik belgilardan biridir.

Buni ko'plab rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kuzatish mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil 19 yanvardagi 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli ma'ruzasi.

SHunga ko'ra zamonaviy jahon xo'jaligida tadbirkorlik mamlakatlar iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanuvchi bo'g'indir. Tashkiliy tuzilmalar orasida kichik biznes sub'ektlarining texnik ta'minoti shiddat bilan rivojlanib, ularning yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorliklari tobora takomillashib bormoqda. Bunga mos ravishda ularning innovatsion imkoniyatlari ham kengayib, rivojlanmoqda. Pirovardda, ko'pchilik o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari uchun kutilgan natija namoyon bo'ldi, bugungi kunda kichik biznes aholining o'z ijtimoiy talablarini qondirishida yetakchi o'rin tutmoqda. Jumladan, Markaziy va SHarqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlari uchun tadbirkorlikni tashkil etish – bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida asosiy hal qiluvchi element hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda rejali iqtisodiyot sharoitida ustun mavqeni egallagan yirik sanoat ishlab chiqarish majmualarining tanazzuli bilan yuzaga keldi va shu jihatdan ham tadbirkorlik – o'tish davrining “sinonim”i sifatida tavsiflandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy tadbirkorlikning ahamiyati haqida mulohaza yuritish ekanmiz, bu borada 2000 yilning 15 iyunida Italiyaning Boloniya shahrida 46 mamlakat ishtirokida o'tkazilgan konferentsiyada qabul qilingan “Kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati bo'yicha Boloniya xartiyasi”¹da konferentsiya ishtirokchilari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir qator ahamiyatli jihatlari e'tirof etilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu Xartiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy hayotdagi eng muhim qirralari sifatida, uning yangi ish o'rinlarini yaratish, mintaqaviy va mahalliy xo'jaliklar rivojlanishida yetakchi mavqega egaligi, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda iqtisodiy muammolar keskinligini yumshatish hamda aholi qo'shimcha daromadlari manbai sifatida kambag'allik darajasini pasaytirish kabilarga alohida urg'u beriladi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini bir necha darajada kuzatish mumkin:

¹ Российское обозрение малых и средних предприятий 2001. – М., 2002. Copyright by European Commission. Манбаа: Ресурсный центр малого предпринимательства <http://www.lib.rcsme.ru>

- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rniga ko'ra;
- iqtisodiyot birliklari, jumladan, mintaqalar va mahalliy xo'jaliklar hamda tarmoqlar rivojlanishi tizimidagi ahamiyatiga ko'ra;
- alohida shaxslar yoki kishilar guruhlar (oilalar va h.k.) ijtimoiy hayotidagi ahamiyatiga ko'ra.

Aslida mazkur 3 ta daraja garchi bir-biridan ajratilib ko'rsatilgan bo'lsada, masalaga iqtisodiyotning yagona "organizm" ekanligi nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak, ular o'zaro uzviy bog'liqlikdir. Hech bir xususiyatni yuqorida ko'rsatilgan darajalardan faqat bittasiga taalluqlidir, deyish noto'g'ri. Tadbirkorlik xususiyatlarini bunday darajalarga bo'lib o'rganish, asosan, fanlarning o'ziga xos tadqiqot ob'ekti va predmetlarining o'zaro farqlanishi, qolaversa, iqtisodiy munosabatlarni o'rganishga turlicha yondoshuv natijasida kelib chiqadi.

Tadbirkorlikning jamiyat miqyosidagi roli avvalo uning butun iqtisodiyot hamda unda ro'y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatuvchi tizim ekanligidadir. Qolaversa, ijtimoiy hayotdagi ahamiyati uning mohiyati bilan uzviy aloqadorlikka ega, chunki aholining tadbirkorlik va ishbilarmonlik ko'nikmalari, xo'jalik faoliyatini rivojlantirishning yuqori ta'sirchanlik salohiyatiga ega vositasi hisoblanadi hamda shu ma'noda aholining bozor sharoitiga moslashuvchanlik darajasini oshirib boradi. Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik, qolaversa siyosiy munosabatlar tizimlaridagi mavqei, ayniqsa, o'tish davri sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun beqiyos o'rin tutadi. Buni respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2007 yil 12 fevralda Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan 2006 yil yakunlari hamda kelgusi yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalariga bag'ishlangan majlisdagi "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir" nomli ma'ruzasida chuqur tahlil asosida ko'rsatib bergan tadbirkorlik sohasida kichik biznesning o'zaro uyg'unlikdagi uchta:

- ichki bozorni zarur tovar (xizmat)lar bilan to'ldirish va shu asnoda iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab berish, aholi bandligi hamda daromad darajasini oshirish;
- harakatchanlik, kam kapital sarfi evaziga ishlab chiqarishni tashkil etish, modernizatsiyalash, mahsulot assortimentini kengaytira olish xususiyatlariga ko'ra bozor o'zgarishiga tez moslashuvchanligi hamda shu orqali keskinlashib va ayni paytda sifat jihatdan takomillashib borayotgan raqobatchilik munosabatlarining faol ishtirokchisi sifatida gavdalanish;
- kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda aholining eng faol qismi – o'rta sinf mulkdorlar qatlamlarining shakllanishini yuzaga keltirish vazifasi misolida asoslash mokin¹.

Inqirozga qarshi choralar dasturida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.


Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2011 yilda 54,0 foizni tashkil etdi. Holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir (1-rasm).

Xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2008 yildagi 13,9 foizdan 2009 yilda 16,9 foizga, 2010 yilda esa 19,6 foizga oshdi. Tarmoqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida 2010 yilda jami 6568,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu 2009 yilga nisbatan qariyb 1,3 marta

¹ Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // "Namangan haqiqati" gazetasi, 2007 yil 14 fevral. 13 (18281)-son.

ortiqdir.

**1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
YaIM dagi ulushi, foizda**



2008-2010 yillarda tarmoq ishlab chiqarishidagi ulushi qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 97,8 foizdan 97,9 foizga, pullik xizmat ko'rsatish hajmida – 48,5 foizdan 47,7 foizga, savdoda 48,1 foizdan 50,% foizga, qurilishda 48,3 foizdan 52,3 foizga, eksport hajmida – 12,4 foizdan 13,6 foizga hamda importda 35,7 foizdan 36,6 foizga qadar oshdi (1-jadval).


**1-jadval. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
iqtisodiyot tarmoqlari hajmidagi ulushi, foizda**

Ko'rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil
Sanoat	13,9	16,9	19,6
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9	97,9
Qurilish	48,3	41,6	52,3
Savdo	48,1	46,5	50,5
Asosiy kapitalga investitsiya	23,1	23,7	30,8
Pullik xizmat	48,5	48,7	47,7
Eksport	12,4	14,6	13,6
Import	35,7	42,5	36,6

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlarining yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Jumladan, bu borada kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi 2009 yilda amaldagi 9

foizdan 8 foizga, 2010 yilda 7 foizga, 2011 yilda esa 6 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,2 barobar kamaytirildi (2-rasm).

2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari



CHizmadagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1996-2011 yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 6 foizgacha, ya'ni 5,4 marta qisqargan.

SHuningdek, tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishida unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma ob'ektlari (2010 yil 1 yanvar holatiga, birlikda)

Infratuzilma ob'ekti nomi	Soni
Tijorat banklari filiallari	1042
Minibanklar	2318
Axborot-maslahat markazlari	262
Konsalting markazlari	327
Auditor firmalari	113
O'quv markazlari	917
Baholash kompaniyalari	138
Tovar xom ashyo birjasining savdo maydonchalari	204
Mikrokredit tashkilotlari	32
Kredit uyushmalari	103
Biznes-inkubatorlar	34
Sug'urta tashkilotlari	32
Brokerlik idoralari	1424

Jadvaldan ko'rinadiki, bugungi kunda mamlakatimiz sohaga o'ndan ortiq

turdagi 8 mingga yaqin infratuzilma muassasalari xizmat ko'rsatib, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Buning natijasida tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Bundan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

1.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi

Bugungi kunda tadbirkorlikning jahon mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora oshib bormoqda. Agar bizning respublikamizda bu sohaga bo'lgan e'tibor asosan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish vazifalariga bog'liq holda keng avj olgan bo'lsa, jahonning boshqa mamlakatlarida kichik biznes va xususy tadbirkorlikning ustuvor ahamiyatlarini tan olish hamda ularni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish ancha ilgari boshlangan edi. Masalan, AQSHda 1953 yili «Kichik biznes to'g'risida» Qonun qabul qilinib, unda: «Mamlakatning xavfsizligi va farovonligi kichik biznesning mavjud va salohiyatli imkoniyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirishsiz taminlanishi mumkin emas» - deb ta'kidlangan edi¹.

Umuman, ko'pchilik xorij mamlakatlari iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va hissasi juda salmoqlidir. Bu birinchi navbatda kichik korxonalar soni, unda band bo'lgan xodimlar soni hamda ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining hissasi bilan aniqlandi.

Frantsiyada mayda hamda kichik biznes korxonalari bir-biridan tafovutlanib, mayda biznes hissasiga barcha korxonalarning 90,3 foiz va ish bilan band

¹ Zyablyuk N.G. Gosudarstvo i maly biznes SShA. Sotsial'no-politicheskiy aspekt. M.: Nauka, 1987. 26-st.

xodimlarning 20 foiz, kichik biznes hissasiga esa barcha ish bilan band xodimlarning 47,9 foiz to'g'ri keladi. Sanoatda yangi korxonalarning 97 foiz kichik biznesga to'g'ri keladi. Kichik biznesning roli qurilishda, savdoda, mehmonxona xo'jaligi va umumiy ovqatlanishda, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida ayniqsa yuqoridir. Kichik biznesning ro'yxatdagi har ikkinchi xodimi savdoda ishlaydi. Injener-qurilish ishlari sohasida kichik biznes hissasiga tovar aylanmasining yarmi to'g'ri keladi. Gollandiyada kichik korxonalar sohasi barcha xususiy korxonalarning 98,5 foizini qamrab oladi, bundan 90 foizi kichik korxonalar sirasiga kiradi. Kichik korxonalarda xususiy sektorda band bo'lganlarning yarmidan ko'prog'i ishlaydi. Hizmat ko'rsatish sohasidagi bandlikning nisbatan yuqori darajasi bo'yicha Niderlandiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida yetakchi o'rinni tutadi.

AQSHda keyingi yillarda kichik korxonalar (sotishdan tushgan mablag' miqdori 19 ming dollargacha bo'lgan korxonalar) soni ikki baravar ko'paydi va 10 mln.ga yetdi, barcha korxonalarning 95 foizi kichik korxonalardir. Kichik biznes yalpi milliy mahsulot o'sishining yarmini tashkil etadi. Agar 80-yillarda 50 ta yirik korporatsiya 3,5 mln. ish o'rnini qisqartirgan bo'lsa, kichik biznes sohasida 20 mln. yangi ish o'rnini tashkil etilgan edi. 1988-1990 yillarda yangi ish joylarining o'sishi to'lasicha kichik korxonalar xissasiga to'g'ri keldi. Bir qator ekspertlarning fikricha, kichik firmalar ish faolligining pasayishi mamlakatda iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarishi mumkin¹.

Buyuk Britaniyadagi firmalarning deyarli 96 foizi kichik biznes sohasiga taalluqli hisoblanadi. Ularga barcha ishchi kuchining 25 foizi hamda yalpi ijtimoiy mahsulotning taxminan 20 foizi to'g'ri keladi.

Germaniyada 2 milliondan ortiq kichik biznes korxonalari faoliyat ko'rsatib, ularda iqtisodiy jihatdan faol aholining qariyb 75 foizi mashg'uldir. Bu korxonalar mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy mahsulotning 50 foizini yetkazib bermoqda.

¹ Abaturov V. Малы́й и средний бизнес в Коре́е. // CHastnaya sobstvennost'. №24 (212), 1999. 8-st.

Umuman olganda, kichik sanoat korxonalari xalqaro federatsiyasining hisob-kitoblariga ko'ra kichik korxonalar hissasiga ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tahminan 50 foizi, kapital qo'yilmalarning esa 30 foizidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Kichik biznes hisobiga AQSH, Germaniya, Angliya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda ish o'rinlarining 2/3 qismi yaratiladi.

Quyida keltirilgan 3-jadvaldan ko'rish mumkinki, odatda, barcha ish bilan band bo'lganlarning yarmidan ko'prog'i mayda va kichik korxonalarda ishlaydilar. Kichik korxonalarning investitsiyalar, qo'shilgan qiymat va oborotning umumiy hajmidagi ulushi 20 dan to 60 foizgachani tashkil etadi, ya'ni juda salmoqlidir.

3-jadval. Turli hajmdagi korxonalar bo'yicha ish bilan band bo'lganlarning taqsimlanishi¹
(*iqtisodiyotda band bo'lganlarning umumiy soniga ko'ra foizda*)

Davlatlar nomi	Korxonalarning hajmi				
	Jami korxonalar	SHu jumladan			
		Mikro	Kichik	O'rta	yirik
Avstriya	100,0	33,6	27,9	23,1	15,4
AQSH	100,0	26,1	28,4	24,0	21,5
Belgiya	100,0	22,1	22,6	26,0	29,0
Buyuk Britaniya	100,0	26,1	22,6	26,1	25,2
Italiya	100,0	43,4	30,4	14,2	12,1
Frantsiya	100,0	32,1	28,0	23,4	16,5
Yaponiya	100,0	49,4	27,7	14,8	8,2

Xorijiy davlatlar iqtisodiyotida kichik biznes hissasining bu qadar salmoqli ekanligi aslo uning o'z rivojlanishida xech qanday to'siq va muammolar yo'qligini bildirmaydi. Bu sohaning rivojlanishida o'ziga hos muammolar mavjud. Jumladan:

- ko'pincha ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirish uchun talab qilinuvchi xususiy mablag'lar hajmining yetarli bo'lmasligi;
- bunday korxonalarning bozor kon'yunkturasining o'zgarishiga o'ta sezgirligi va bog'liqligi;
- o'ta qattiq raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishning zarurligi;

¹ Блинов А. Региональная система поддержки малого предпринимательства в России. -Автореферат на соиск. д.э.н. М., 1994.

- kichik biznes korxonalarining ayniqsa faoliyatning yangi sohalaridagi firmalarning doimiy ravishda yuqori tavakkalchilik sharoitiga amal qilishi;
- tashkil topish davridagi qator to'siq hamda qiyinchiliklar va h.k.

SHunga ko'ra, deyarli barcha mamlakatlarda tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish, faoliyat uchun qulay sharoit yaratish hamda turli to'siqlar ta'sirini cheklab turish maqsadida davlatning maxsus siyosati ishlab chiqilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi doirasidagi kichik korxonalarga nisbatan davlat siyosatining asosiy maqsadlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- kichik korxonalarning rivojlanishi uchun qulay bozor sharoitlarini yaratish;
- bozor munosabatlarida tomonlarning o'zaro teng huquqliligini qo'llab-quvvatlash;
- raqobat muhitini hamda iqtisodiy faollikning xarakatchanligini ta'minlash;
- yangi ish o'rinlarini, ayniqsa ishsizlik muammosi keskinlashgan hududlarda barpo etish;
- raqobatning keskinlashuvi natijasida kelib chiquvchi ijtimoiy oqibatlarni, sarf-harajatlarni kamaytirish.

Gollandiyada tadbirkorlikga nisbatan davlat siyosatidagi asosiy holat bo'lib shunday qoida hisoblanadiki, unga ko'ra tadbirkor o'z faoliyati uchun to'la javobgar bo'ladi, hukumat esa yordamchi rolni o'ynaydi.

Frantsiyada tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi bandlikni oshirish va raqobatbardoshlikni o'stirishdan iborat. U o'z ichiga bevosita tartibga solishni, ish muhitini yaxshilashni, bilvosita yordamning turli ko'rinishlarini oladi.

Germaniya tadbirkorlik korxonalariga nisbatan yurgizayotgan davlat siyosati ularning raqobatbardoshligini oshirish tadbirlariga, turli soliq-moliyaviy imtiyozlarga, shuningdek, ularni iqtisodiyotda bo'lib o'tayotgan tarkibiy o'zgarishlarga moslashishga asoslanadi. Bunda davlat yirik korxonalar bilan raqobatlashish uchun teng sharoitlar yaratib berishga intiladi.

AQSH hukumati siyosatida kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga

solish muhim ahamiyat kasb etadi. Hattoki, Amerika iqtisodiyotining rivojlanishida uning xizmatlarini e'tirof etish sifatida maxsus umummilliy kichik biznes kunlari o'tkaziladi. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga davlat tomonidan yondashuvining asosi - soliqlarning past darajasi hamda tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi to'la erkinligidir.

Har bir mamlakatda tarkib topgan tarkibiy-boshqarv tuzilmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlik siyosatini samarali amalga oshiruvchi maxsus ijrochi va nazoratchi idoralar tizimi shakllantirilishi lozim. Jumladan, kichik korxonalar bo'yicha siyosat uchun bevosita javobgarlikni Niderlandiya iqtisodiyot vazirligi tarkibidagi kichik tadbirkorlikga xizmat ko'rsatish va bozorni tartibga solish bo'yicha Bosh direktorat olib boradi.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatida hal qiluvchi omil - ish kuchi, uning mahorat va bilim darajasi, ishga ijodiy yondashuvini tadbirkorlik hislatlarini o'zida mujassamlashtira olish qobiliyatlari hisoblanadi. Mamlakatdagi aholining ishbilarmonlik darajasini o'stirishni rag'batlantirish davlatning tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish tizimidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Biroq, turli mamlakatlarda bu muammoni hal etishga turlicha yondashiladi. Masalan, Frantsiyada kasbiy ta'lim berishning takomillashgan tizimi mavjud. Korxonalar ish haqi fondidan 1,5 foizni xizmatlarning kasbiy tayyorgarligi uchun sarflashga majburlar. Ta'lim olish uchun sarf - harajatlarning ko'payishi hollarida soliq imtiyozlari amal qiladi.

Niderlandiyada esa, xususiy ishini boshlovchilar maxsus kurslarda o'qib, biznes-reja tuzish, ish yurtish uchun axborot olish va shu kabilar bo'yicha ma'lumot oladi.

Bu yerda «Minikorxonalar fondi» ham amal qilib, uning vazifasi o'qish davomida o'z kichik korxonasini ochgan 16-25 yoshdagi talabalarni qo'llab - quvvatlash hisoblanadi. Boshqa bir qiziqarli dastur, bir qancha yirik kompaniyalar tomonidan moliyaviy yordam olib, kichik korxonalarga boshqaruvchi sifatida yordam beruvchi nafaqaxo'rlarga haq to'lashdan iborat.

Italiyada kasbiy o'qitish davlat tomonidan moliyalashtirilmaydi. Italiyada keng tarqalgan mikrokorxonalarning xodimlari orasida bilim, mahorat va tajriba bevosita ish joyida to'lanadi - yosh xodim tajribani o'z hamkasblaridan o'rganadi. SHunday qilib, o'rganish o'z - o'zidan yuz beruvchi o'ziga xos jarayonga aylanib, u xech qanday sertifikatga ega bo'lishga olib kelmaydi.

SHunday bo'lsada, Italiyada yosh tadbirkorlar uchun bir qator imtiyozlar amal qiladi. Ular tomonidan tashkil etilayotgan firmalar moliyaviy jihatdan ustunliklarga ega bo'ladilar - ularga ajratilgan mablag'larning 50 foiz gachasi asbob - uskunalarni sotib olishga yo'naltirilsa, 15 foiz uzoq muddatli kredit ko'rinishida taqdim etiladi. Yana ular uchun noishlab chiqarish sarflarini qoplash maqsadida ikki yillik yordam ko'rsatiladi.

Bu ustunliklardan to'la me'yorda foydalanish uchun korxona tashkil etish hamda amalga oshiriluvchi loyiha ishlab chiqarish kerakki, unda sheriklarning yoshi ko'rsatilishi, firma faoliyat ko'rsatuvchi bozorning tahlili berilishi lozim. Firmaning faoliyati ustidan davriy auditorlik nazorati ko'zda tutiladiki, qonunning qo'pol buzilishi hollarida imtiyozlar bekor qilinishi mumkin.

Tadbirkorlik korxonalari iqtisodiyotda raqobat muhitining shakllanishidagi rollari to'la amalga oshirilishlari hamda unda sezilarli ta'sir o'tkaza olishlari uchun ma'lum shart-sharoitlarga ega bo'lishlari lozim. Jumladan, bu sohaning samarali faoliyat ko'rsatishida unga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi masalalarining ahamiyati beqiyosdir. Niderlandiyada 36 ta savdo palatasi mavjud. Barcha firmalar savdo palatasida ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari va har yillik badalni to'lashlari lozim. Palatalar asosiy faollikni konsalting xizmatlari ko'rsatish borasida namoyish etadilar. Bevosita o'qitish, maslahat berish va kengash xizmatlarini ko'rsatish borasida 12 mintakaviy institutlardan iborat tarmoqqa ega bo'lgan mustaqil tashkilot-kichik korxonalar instituti faol shug'ullanadi.

Yaponiyada 500 ta mahalliy savdo-sanoat palatasi hamda ularning filiallari turli ko'rinishdagi moliyaviy, maslahat berish kasbiy jihatdan tayyorlash yordamlarini ko'rsatadilar.

Yuqorida bayon etilgan tadbirkorlikni rivojlantirish borasida xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlatning keng miqyosdagi har tomonlama tartibga solish tizimisiz bu sohaning samarali amal qilishiga o'z imkoniyatlarini namoyon etilishiga erishib bo'lmaydi:

- bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda kichik biznes samarali rivojlanishini davlatning ishtirokisiz ta'minlab bo'lmaydi;
- xorijiy mamlakatlar tajribasi davlat tomonidan tartibga solishda tashkiliy, moliyaviy, huquqiy, moddiy va ma'naviy-iqtisodiy tadbirlarni qamrab olishi zarurligini ko'rsatdi;
- bu tadbirlar va ularni amalga oshirish vositalari mamlakatning milliy xususiyatlari, iqtisodiyotning holati, vujudga kelgan ijtimoiy-ruhiy vaziyat, iqtisodiy madaniyat darajasi va boshqa iqtisodiy muhit hamda sifat omillari hisobga olgan holda belgilanishi zarur.

SHunga ko'ra, har bir mamlakatda, shu jumladan, O'zbekistonda ham, iqtisodiyotning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning samarali chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqishi va doimiy ravishda takomillashib borishi kerak.

1.3. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin.

Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Tadbirkorlik korxonalari texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bizning respublikamizda tadbirkorlik va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekistan Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Mulk to'g'risida», «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi kabi qonunlari, Prezident farmon-lari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

Xususiyl korxonalar ilmiyl-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Bugungi kunga kelib, xususiyl tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Bunday korxonalar ishlab chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi va, hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan uzviyl bog'langan, ular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va hokazolardir.

Tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli tizimni tashkil etish, kichik va xususiyl

tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF-3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- engil va oziq-ovqat sanoti, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 100 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan ular bozor sharoitiga tez moslashadilar hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o'z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or

texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o'zlashtirib boradilar.

Mulkchilik shakllariga ko'ra kichik korxonalarining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Davlat mulkiga asoslangan kichik korxonalar.
2. Jamoa mulkiga asoslangan kichik korxonalar.
3. Fuqarolarning mulkiga asoslangan yakka tartibda ishlay-digan kichik korxonalar.
4. Ijara korxonalari.
5. Kichik qo'shma korxonalar.

2009 yilda respublikada tadbirkorlik, uning kichik biznes shakli bilan band bo'lgan korxonalar soni 400 mingdan oshdi. Ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50,1 foizni tashkil etadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 392 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bunday korxonalar faoliyatining tahlili ular qishloq xo'jaligi sohasida, ayniqsa jadal rivoj topayotganligini ko'rsatadi. 2009 yilda ular soni 100 mingdan oshib ketdi.

Respublikamizda kichik biznes korxonalari sonining izchillik bilan ortishi, iqtisodiyotning barcha sektorlarida, jumladan, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida ham kuzatilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham asta-sekin rivojlanmoqda. Uning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2009 yilda 14,7 foizni tashkil etdi. Kichik biznes korxonalarining asosiy eksporti – qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnika ishlab chiqarish mahsulotlari hamda halq amaliy san'ati buyumlaridir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tashkil

etilmoqda. SHu bilan ularning iqtisodiyotdagi o'рни va ahamiyati ortib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta'minlab bo'lmaydi;

- bozor uchun zarur bo'lgan raqobatchilik muhitini yaratadi hamda o'zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o'zgartirib olish qobiliyatiga ega yekanligi bilan ajralib turadi;

- iste'molchilik sohasida yuzaga keladigan bo'shliqni tezda to'ldirishga qodir bo'lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qoplay oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xususiyatlari (muomala kapitalining kichikligi, uning tez aylanuvchanligi, ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari va b.) uning bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga yetkazish va o'zlashtirish, ularni talabning tez o'zgarib turishi xatarini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;

- tezkor texnik servisning ishonchliligi va iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish;

- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga hamda bozor vaziyatlari o'zgarishlariga muvofiq olib borish;

- boshqarishning oddiyligi, katta ma'muriy apparatning yo'qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o'zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o'zini oqlashi, kapital aylanmasida yuqori tezlik;

- xom ashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish chiqindila-ridan

to'liqroq va samaraliroq foydalanish.

Tadbirkorlikni hamda u bilan bog'liq barcha narsalar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasini muhim va tarkibiy qismini tashkil etadi. SHuning uchun ham davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlikka muhim o'rin ajratilib, ularga davlat tomonidan madad berilmoqda.

Xususiyl tadbirkorlik va kichik biznes ilmiy-texnika rivojini jadallashtirish, sanoatning ilg'or tarmoqlarida yangi tex-nologiyalarga o'tish sharoitida o'z o'rnini topib bormoqda. Bunday tadbirkorlik yangi axborot texnologiyalarini, yangi g'oyalar va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bilan ishlashni ta'minlovchi butun tizimning ajralmas qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, kichik korxonalar tavakkalchilik xavfi yuqori bo'lgan sharoitlarda ishlab chiqarishning ma'qul shakllaridan hisoblanadi.

Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Yangi texnologik g'oyalarni yirik korxonalarga nisbatan tezroq qabul qiladigan kichik biznesda xatar kamroq va katta turkumdagi ishlab chiqarishga qaraganda ishni tezroq yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa bizning sharoitda ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotini ta'minlashda, tovarlar va xizmatlar yetishmovchiligini bartaraf etishda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik katta o'rin tutadi. Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidagi o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda tadbirkorlik tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- erkin mehnat resurslarining, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;

- aholining, birinchi navbatda, yoshlarning, moddiy, ma'naviy va kasb darajasini ko'tarish;

- aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab

chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

- milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqa uchun g'oyat muhim bo'lgan iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijobiy ahamiyatini e'tirof etgan holda, uning ahamiyatini ortiqcha baholab yuborish ham to'g'ri emas. Xususiy tadbirkorlik faqat muayyan doiradagina faollik ko'rsata oladi, shu sababli kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun kerakli sharoitni yaratish zarur. Buning uchun bizningcha, moliya jamg'armalarini tashkil etish kerak. Bu jamg'armalar tadbirkorlar tijorat banklarida imtiyozli kreditlar olish uchun kafil bo'lishlari lozim.

O'zbekistonda korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi tadbirkorlikka xizmat ko'rsatadigan banklar, fondlar, investiiyalar va sug'urta tashkilotlarining faoliyatlarini rag'batlantirish yo'nalishida olib borilishi lozim. Xorijiy mamlakatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasida ham agar korxona ustuvor davlat dasturida (yangi texnikani yaratish, uzoq hududlarni rivojlantirish va boshqalar) qatnashayotgan bo'lsa, imtiyozli qarzlar olishi mumkin. Bunda foizning eng kam me'yori va qarzni uzishda uzoq muddat berilishi – qarz berishdagi asosiy shartlardandir.

Tadbirkorlik faoliyatiga oldindan ko'rib bo'lmaydigan xilma-xil xatarli vaziyatlar katta ta'sir ko'rsatadi, kon'yunkturaning keskin o'zgarib ketishi, mijozlarning to'lovga qodir bo'lmay qolishi, tabiiy ofatlar ularni tang ahvolga tushirib qo'yadi. SHu sababli rivojlangan mamlakatlarda sug'urtalar tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bizning mamlakatimizda ham sug'urtalar barpo etilishi zarur. Bu tizim tadbirkorlikni rivojlantirishda (ayniqsa, tijorat xatarlari katta bo'lgan sohalarda) qulay sharoitlarni kafolatlashi, o'ziniki bo'lgan yoki qarz olingan kapital bilan tavakkal qilib ish boshlagan tadbirkorlarga ishonch va zarur

barqarorlikni yaratishi kerak.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy raqobatning rivojlanishini, iste'mol bozorini tovarlar va xizmat turlari bilan to'ldirishni, shuningdek, xususiy tadbirkorlarning keng qatlamini yaratishni taqozo etadi. Bularni hisobga olib, bugungi kunda Respublikada quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

- aholining keng tabaqalarini bozor faoliyatiga olib kirish, ulardagi boqimandachilik, iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilish, aholida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan faol shug'ullanish istagini uyg'otish;

- qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlarni tubdan yangilash, dehqon va fermer xo'jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ular sonini imkon qadar oshirish, hududlarda kichik korxonalar tashkil etish yo'li bilan vaqtincha ishsiz yurgan kishilarni qo'shimcha ish joylari bilan ta'minlash;

- mintaqada bozor munosabatlari va infratuzilmani jadallashtirish, iqtisodiy raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- respublika aholisining ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni barpo etish;

- ko'rsatiladigan xizmatlar turini va miqyosini keskin oshirish, bank, auditorlik, konsalting hamda turli vositachilik faoliyatlarini hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari asosida yuksak saviyada tashkil etishni ta'minlash;

- korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish, ularning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

- joylarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlari va hajmini bozor talablariga ko'ra osonlik bilan moslashtira oladigan iste'mol bozorini tovar bilan to'ldirib, eksport uchun mol chiqara oladigan kichik korxonalarni joriy qilish.

Ma'lumki, respublikada mehnatga layoqatli aholining katta qismi qishloqlarda yashaydi. Bu qishloq joylarda tadbirkorlikning rivoji uchun juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. SHu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida

band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchlarini xizmat ko'rsatish, qayta ishlash va shu kabi yo'nalishlarga qayta taqsimlash kerak. Qishloqda tadbirkorlikni, rivojlantirish bilan bog'liq turli boshqaruv pog'onalarida tashkiliy-iqtisodiy masalalarni hal etish ustuvor masalalar qatoriga kiradi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz miqyosida quyidagi masalalarni hal qilish lozim deb hisoblaymiz:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlash uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- hududlarda haqiqiy tadbirkorlik muhitini yaratish;
- moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini izchil davom ettirish, soddalashtirish;
- tadbirkorlikning huquqiy bazasini yanada mustahkamlash;
- islohotlar natijalarini reklama va axborot xizmati vositalari orqali keng ommaga yetkazib borish.

II BOB. Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muxiti shakllanishining shart sharoitlari va rivojlantirish istiqbol yo'nalishlari

2.1. Farg'ona iqtisodiy rayoni iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar

Farg'ona iqtisodiy rayoni iqtisodiy salohiyatini belgilash va uni o'rganish uchun eng avvalo mazkur mintaqadagi uch viloyatning joylashgan o'rni va tabiiy sharoitlarini, aholisi, aholisining demografiyasi va ularning mehnatda bandlik darajasini o'rganishimiz zarur bo'ladi. Buning natijasida esa mintaqaning iqtisodiy salohiyatini belgilash va uni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Jumladan, Namangan viloyati Farg'ona vodiysining shimoliy-g'arbida, CHotqol va Qurama tog' tizmalari yaqinida joylashgan. Xududning katta qismi sug'oriladigan dehqonchilikka mos.

Mintaqadan Buyuk ipak yo'li o'tgan bo'lib, qulay iqlim sharoiti sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini kengaytirish, tarkibiy obidalar va ziyoratgoh'lar mavjudligi turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratdi. Ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash borasida ham viloyat katta salohiyatga ega. Nodir foydali qazilma konlari ochilganligi, aholi gavjum ekanligi ham mintaqaning katta investitsiya imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan shu xududda mavjud bo'lgan resurs va infratstruktura tizimi bilan nisbatan yuqori darajada «jihozlanganlik» xududning tez rivojlanishiga muhim sharoit yaratadi. Farg'ona vodiysining potentsial imkoniyatlari eng avvalo mehnat resurslarining soni, ishlov beriladigan yer maydoni, asosiy ishlab chiqarish fondlari quvvatining bir muncha yuqoriligida va avtomobil yo'llarining zichligida namoyon bo'ladi. Respublikada ishlov beriladigan yer maydonining 20%i, asosiy fondlarning 25%ga yaqini mintaqa hissasiga to'g'ri keladi. Respublikada avtomobil yo'llarining zichligi jihatidan Farg'ona vodiysi yetakchi o'rinni egallaydi. Respublikamizda avtomobil

yo'llarining zichligi har bir km kv ga 100 m dan to'g'ri kelsa, vodiya har bir km kv ga o'rtacha 500 m yo'l to'g'ri keladi. Mazkur ijobiy ko'rsatkich bir qarashda ijobiy baholansada, aholining zichligiga nisbatan taqqoslaganda buni ko'p deb ayta olmaymiz. Chunki Farg'ona vodiysi aholi zichligi bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 7-8 marta ko'pdir. Shuning uchun ham infrastruktura tizimini yaxshilashda yo'l qurilishiga e'tibor qaratish mintaqa salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Farg'ona vodiysi iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining xududiy tarkibini tahlili quyidagi holatlarni aniqladi:

- mintaqa jami milliy boylik ko'rsatkichining qariyb 39,9 %i Andijon viloyati, 33,3 %i Farg'ona viloyati va 27,4 %i Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Mintaqa zahiraviy salohiyatining esa 40 %i Andijon viloyati, 31,7 %i Farg'ona viloyati va 28,3 %i Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keladi;
- mintaqadagi uchta viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajalari va sur'atlarining tahlili nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatdi. Mintaqada jami yalpi ichki mahsulotining 42,9 %i Farg'ona viloyati, 35,0 %i Andijon viloyati va 22,1 %i Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajalarining uzviy tahlili viloyatlar miqiyosida quyidagi muammolarning mavjudligini aniqlash imkoniyatini berdi. Chunki, Andijon viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM indeksi zahira potentsiali indeksidan biroz pastroq ($1,06 < 1,086$). Bu esa mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishni intensivlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Farg'ona viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM indeksi xudud zahira potentsiali indeksidan ancha baland ($1,08 > 0,70$). Demak, bu xududda mavjud tabiiy-iqtisodiy potentsialdan foydalanish samaradorligi ancha yuqori. Chunki sanoat ishlab chiqarishining va ishlab chiqarish infrastrukturasi ob'ektlarining asosiy qismi shu yerda joylashgan. Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lishiga qaramay bu xududda ham muammolar yetarli darajada. Jumladan, asosiy fondlarning aksariyat

qismi ancha eskirganligi bir muncha murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Aynan mana asosiy fondlar hisobiga ham viloyatning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi zahiraviy potentsiali ko'rsatkichi nisbatan kam bo'lmoqda. Boz ustiga ekologik vaziyat ham bir qancha yirik korxonalarni modernizatsiya qilish zaruriyatini qo'ymoqda (R.Rayimjanov. 2006 y).

Viloyatlar uchun umumiy bo'lgan muammolar qatorida yangi ish o'rinlarining yaratilishi mehnat resurslarining o'sish sur'atlaridan orqada qolayotganligi, xududlarning bozor iqtisodiyoti elementlarini qabul qilish darajasi va xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga moslashuvi darajasining pastligini, mamlakat va xorijiy investitsiyalar joylashtirilishining xududlararo nomutanosibliklarini, turli boshqaruv organlarida (tuman, shahar va qishloqlarda) tashabbuskorlik darajasining pastligi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda, mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda kapital mablag'larni oqilona joylashtirish muhim masaladir. Chunki mintaqada moliya vositalaridan yuqori darajada foyda keltirish imkoniyati mavjud bo'lgan xududlardan hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, Farg'ona vodiysida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot salohiyatini yanada oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mana shu mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilsa mintaqada kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda lakomativ funksiyasini bajarishi mumkin.

Xududning ijtimoiy-iqtisodiy potentsialidan foydalanishni hamda uning rivojlanishini tahlil va tadqiq etishda statistik ma'lumotlar bilan bir qatorda aholi, uning turli xil guruhlari va ekspertlar o'rtasida o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovnomalarning ham ahamiyati kattadir. Ushbu usul orqali aholining yashash sharoiti, turmush tarzi va unga turli xil xizmat ko'rsatishning real holati, ijtimoiy va ekologik muammolar hamda birong'bir korxona yoki oliy o'quv yurtining ijtimoiy demografik xususiyatlarini aniqlash, mehnat resurslari tarkibini tahlil qilishda xodimlar bo'limidagi ma'lumotnomalar o'rganilganligi diqqatga sazovordir (Soliev, Mirzaahmedov, Jumaxanov, 2006). O'rni kelganda shuni ham aytish joizki, shuning uchun ham mazkur ishda «Ijtimoiy fikr» jamotchilik fikrini

o'rganish Markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida esa Farg'ona vodiysi bo'yicha bozor iqtisodiyoti elementlarining yuqori darajada qabul qilinmayotganligi va tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli olib borilishi uchun halal berayotgan asosiy sabablar moliyaviy resurslarning yetishmayotganligi hamda ulardan oqilona foydalanilmayotganligi, banklarning fermer va dehqon xo'jaliklari, kichik va o'rta tadbirkorlar bilan hamkorlikda ish qilish tashabbuskorligining yo'qligida namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlar uchun eng dolzarb muammolardan biri esa kredit olish masalasi bo'lib qolmoqda. Demak nafaqat aholi, balki tadbirkorlarda ham bank bilan muomala qilish madaniyati endi shakllanayapti desak mubolag'a bo'lmaydi degan fikrlarni bildirish mumkin..

Mintaqa aholisining soni va uning zichligi jihatidan boshqa mintaqalar orasida birinchi o'rinni egallagan holda aholining o'rtacha o'sish sur'atining yuqori darajadali hisobiga uning mamlakatimizdagi ulushi birmuncha oshdi. Xususan aholi sonining respublikadagi ulushi faqatgina 1990, 2000 va 2009 yillarda mutanosib ravishda 27,0%, 27,7% va 27,9%ni tashkil etdi.

Mintaqadagi investitsiya faoliyatining tahlili so'nggi 19 yil davomida mazkur xududga katta e'tibor berilganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa sanoatning negiz tarmoqlarida yoqilg'i, mashinasozlik, kimyo va neftkimyo, to'qimachilik sohalariga katta investitsiyalar jalb qilindi. Jumladan, "GM-O'zbekiston" avtomobil zavodi, «Qabul-Farg'ona KO» qo'shma korxonalari, Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida yirik gaz saqlovchi omborxona qurilganligi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, Andijon, Qo'qon biokimyo zavodlari qayta ta'mirlanganligi yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, ya'ni milliy boyligi, zahiraviy salohiyati va iqtisodiy infrastrukturasini tahlil qilinganda mintaqaning milliy boylik ko'rsatkichi foydali qazilmalarni hisobga olmaganda, respublikada salmoqli o'rin egallaydi. CHunonchi, foydali qazilmalardan tashqari respublika milliy boyligini tashkil etuvchi asosiy ko'rsatkichlar (er resurslari, suv resurslari, asosiy fondlar, aylanma vositalar, aholining mol-mulki)ning deyarli ¼ qismi o'rganilayotgan

mintaqa hissasiga to'g'ri keladi. Yuqoridagi fikrlarimizni inobatga olgan holda, xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish uchun uning ilmiy asoslarini tadqiq etish talab etiladi. Buning uchun ilg'or xorij hamda ilgari ijobiy tajribalarni o'rganish va shuning asosida respublikamiz sharoitiga mos qiluvchi xududiy rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim. Xududlarni rivojlantirishning sobiq ittifoq tajribasiga nazar salsak, bunda birinchi navbatda xududiy reja oldi tadqiqotlari olib borilgan. SHuning asosida xududiy rivojlantirishning 15-20 yilga mo'ljallangan bosh sxemalari ishlab chiqilgan. So'ngra ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning o'rta muddatli, asosan besh yillik asosiy yo'nalishlari qabul qilingan. Keyingi bosqichda har bir viloyat, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari ishlab chiqilgan. Bularning barchasi davlatning deyarli yuz foizlik mulk egasi bo'lgan sharoitlarda amalga oshirilgan va davlatning to'la tasarrufi hamda nazorati ostida bo'lgan. Bozor sharoitlarida rivojlangan chet mamlakatlarda avval xududiy dasturlar tuzish uchun tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan keyin muammoli, maqsadli xududlar va tarmoqlar bo'yicha uzoq muddatli va o'rta muddatli dasturlar qabul qilingan.

Hozirgi kunda mahalliy boshqaruv organlari oldiga o'z xududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha choralarni ishlab chiqish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini oqilona joylashtirish vazifasi turibdi.

Bu borada ham respublikamizda birinchi qadamlar tashlanmoqda. Buni mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining 2004 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan navbatdan tashqari sessiyadagi nutqidan ham ko'rsak bo'ladi. Mazkur nutqda yangi viloyat rahbari istiqboldagi tarqiqiyot rejasini aniq belgilab olishi lozimligini, 2015 yilgacha mo'ljallangan ushbu dasturda har bir soha va tarmoq ustivor yo'nalishlar, muammolar, ularning yechimlari, bir so'z bilan aytganda, viloyatni rivojlantirish masalalari o'z aksini topishi zarurligini, ana shundan keyin aniq maqsadlar yo'lida harakat qilish va ko'tilgan natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlandi. (Xalq so'zi

gazetasi, 30.01.2004 №22)

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, mazkur yo'nalishni Toshkent viloyatidan tashqari mamlakatimizning barcha viloyatlarida ham amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Zero, xududiy Dasturlarni qabul qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning xududiy darajalaridagi keskinlikning bir muncha yumshatish imkoniyatini yaratishdan tashqari mamlakat iqtisodiyotini jadallashtirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida ustivor xududlarni iqtisodiy jihatdan asoslash va iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish mintaqada aholi joylarini iqtisodiy imkoniyatlari, transport, geografik, infrastruktura sharoitlarini kompleks tahlili qilish va mintaq sanoatini oqilona joylashtirish hamda uni ustivor rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqib, 35 ta tayanch aholi joylari saralandi hamda ularning ustivorlik darajalari aniqlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga keltirishda quyidagi chora-tadbirlarni mintaq miqiyosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- sust rivojlangan xududlarda elektr-energiya, yer, suv va transport harajatlari uchun kamaytirilgan narx va tarif stavkalarini belgilash;
- xududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini e'tiborga olgan holda soliqqa tortishda, kredit va korxonalarni texnik modernizatsiyalashni moliyalashda imtiyozli tizimlarni joriy qilish;
- xududlar tarqiqiyotini jadallashtirishda investitsiyalarni faol jalb etish va ularning samaradoriligini ta'minlashda hamda qulay investitsion muhit yaratishda ilmiy tadqiqotlar asosida saralangan ustivor tayanch aholi joylari ro'yxatidan keng foydalanish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan tadbirkorlar muammolarining yechimi Farg'ona vodiysining iqtisodiy rivojlantirish salohiyatidan oqilona foydalanishda hamda xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Farg'ona mintaqasida qulay tadbirkorlik muhitining shakllantirilishi

O'zbekiston Prezidenti o'zining Konstitutsiya qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida 2011 yilni mamlakatimizda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deya e'lon qilish hamda mazkur yilga bag'ishlangan Davlat dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq quyidagi 3 ta ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan edilar:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng yo'l ochib berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, yangi qonun hujjatlarini qabul qilish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish;
- sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovatsion va nanotexnologiyalar, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berish¹.

Ushbu belgilangan ustuvor yo'nalishlardagi vazifalar xususida mamlakatimiz rahbari o'zining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" nomli ma'ruzasida ham alohida to'xtalib o'tadi: "mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-

¹ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan. Manbaa: <http://www.gov.uz>

tadbirlarni amalga oshirish lozim”¹.


SHu ma’noda mintaqalardagi qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish masalalarini tadqiq etish masalasi mamlakatimizning o’ziga xos murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tavsifga ega Farg’ona mintaqasi uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Farg’ona iqtisodiy mintaqasi o’zining tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy va ekologik xususiyatlariga ko’ra mamlakatning boshqa mintaqalaridan keskin farqlanadi. Mintaqa 3 ta ma’muriy birlik – Farg’ona, Namangan va Andijon viloyatlarini o’z tarkibiga olib, umumiy yer maydoni 19,2 ming km. kv.ni, aholisi 8415,9 ming kishini (2011 y.) tashkil qiladi. Mintaqa garchi mamlakat umumiy yer maydonining atigi 4,3 foizini egallasada, uning hissasiga mamlakat aholisining 28,5 foizi, yalpi ichki mahsulotning 16,4, sanoat ishlab chiqarishining 23,1, qishloq xo’jaligi mahsulotlarining 25,4, asosiy kapitalga jalb etilgan investitsiyalarning 14,0 foizi to’g’ri keladi (5-rasm).

Farg’ona mintaqasidagi qulay tadbirkorlik muhitining shakllanishi nazariy yondashuvlarga ko’ra, ikki yo’nalishda baholanadi. CHunonchi, **birinchi yo’nalish**, tadbirkorlik sub’ektlarining tashkiliy holati, barqarorligi, dinamikasi kabilar bilan bog’liq **miqdoriy yondashuvda** hamda **ikkinchi yo’nalish** – yaratilayotgan yalpi hududiy mahsulot, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi, tarmoq tarkibi, yaratilayotgan ish o’rinlari, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining moliyaviy natijalarini qamrab oluvchi **sifat yondashuvi**.

2011 yil natijalariga ko’ra, Farg’ona mintaqasida fermer xo’jaliklarini qo’shmagan holda jami 69166 ta tadbirkorlik xo’jalik sub’ektlari ro’yxatga olingan bo’lib, bu respublika jami ko’rsatkichining 23,2 foizini tashkil etadi. O’tgan bir yil ichida mintaqada 7633 ta tadbirkorlik sub’ekti ro’yxatdan o’tgani holda (bu respublika ko’rsatkichining 20,9 foizini, mintaqadagi jami ro’yxatga olinganlarning 11 foizini tashkil qiladi), 3205 ta sub’ekt tugatilgan (bu respublika

¹ Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. // 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza. – T.: “Xalq so’zi” gazetasi, 2011 yil, 22 yanvarь.

Farg'ona iqtisodiy mintaqasining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni, jamiga nisbatan foizda (2011)



Rasm Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

ko'rsatkichining 14,9 foizini, mintaqadagi jami ro'yxatga olinganlarning 4,6 foizini tashkil qiladi).

Mavjud ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik sub'ektlarining 36,6 foizi Andijon viloyatiga, qariyb 37 foizi Farg'ona viloyatiga, 26,4 foizi esa Namangan viloyatiga to'g'ri keladi. Yangidan tashkil etilganlarning 36,2 foizi Farg'ona, 35,2 foizi Andijon hamda 28,6 foizi Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Ayni paytda tugatilgan korxonalarning 49,1 foizi Farg'ona, 25,8 foizi Namangan, 25,1 foizi Andijon viloyati hissaga to'g'ri kelgan (1-jadval).

4-jadval


2011 yilda ro'yxatga olingan korxonalar soni

Viloyatlar	2011 yilda ro'yxatga olinganlar jami	2011 yil yanvar-dekabrda	
		tashkil topdi	tugatildi
Andijon, birlik	25305	2683	805
Namangan, birlik	18287	2185	825
Farg'ona, birlik	25574	2765	1575
Mintaqa bo'yicha jami, birlik	69166	7633	3205
Respublikadagi ulushi, foizda	23,2	20,9	14,9

Mavjud xo'jalik sub'ektlarining mulkiy tasnifida nodavlat sektor ulushi mutloq yuqori bo'lib, bu nisbat mintaq bo'yicha 84,9 foizni tashkil etsa, bu Andijon viloyatida 86,9 foizga, Namanganda 86,7 hamda Farg'ona viloyatida 83,1 foizga tengdir (6-rasm).

6-rasm

2011 yilda faoliyat ko'rsatgan xo'jalik sub'ektlarining mulkiy tasnifi, foizda



Ayni paytda mavjud barcha ko'lamdagi xo'jalik sub'ektlari tarkibida kichik


biznes sektori ulushi yuqorida kuzatilgan mintaqa ko'rsatkichlari bilan qisman bo'lsada tafovutga ega. CHunonchi, ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosiblik jihatlari quyidagilarda kuzatiladi:

- mintaqadagi jami xo'jalik sub'ektlari soni va ulardagi viloyatlar ulushi ko'rsatkichlari kichik biznes sektori sub'ektlari ko'rsatkichlari bilan deyarli monand keladi. Buning asosiy sababi, jami xo'jalik sub'ektlari tarkibida kichik biznes sektori sub'ektlarining mutloq ko'pligidir;
- har ikkala ko'rsatkichlar tizimida ham Farg'ona viloyati yuqori o'rinni egallab, tashkil etilish va tugatilish holatida ayniqsa beqaror tavsifga ega.

Tafovutli holatlarga esa, kichik korxonalar va mikrofirmalar sonida Andijon viloyati ulushining yuqoriligi, Namangan viloyatida kichik biznes sub'ektlarining jami xo'jalik sub'ektlari sonidagi ulushi nisbatan pastligi (bu ulush Andijon viloyatida qariyb 83 foizni, Farg'ona viloyatida 79,3 foizni, Namangan viloyatida esa 79,1 foizni tashkil etadi) kabilarda kuzatiladi.

Mintaqa xo'jalik tizimi rivojlanishidagi hududiy va ichki tafovutlilik xususiyatlari kichik biznesning rivojlanish jarayonida ham kuzatiladi. Farg'ona mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes tuzilmalari qator tarmoqlar bo'yicha ustun mavqega ega bo'lsada, sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo aylanmalardagi ulushi respublika ko'rsatkichidan qariyb 2 martaga, chakana savdo aylanmasida 3,1 foizga, yo'lovchi tashishda 6,2 foizga past. Ayni paytda kichik biznesning qishloq xo'jaligi (92,3%), mehnatda bandlik tarkibi (77,9%), qurilish (78,4%), pullik xizmatlar (63,4%), avtomobil transporti (62,8%) sohalarida egallagan yuqori darajadagi ulushi, mazkur sektorning yaqin istiqbolda mintaqa xo'jaligi rivojlanishida hal qiluvchi kuch sifatidagi maqomini saqlab qolishini ko'rsatadi (7-rasm).

**Farg'ona mintaqasi iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni,
jamiga nisbatan foiz hisobida, 2011 y.**



Mintaqada kichik biznes sektori keyingi 10 yillikda umumiy parametrlar bo'yicha sezilarli sur'atlarda rivojlanib keldi. Jumladan, 2000-2011 yillarda sektorda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi amaldagi baholarda pullik xizmatlar ko'rsatishda 31,6 martaga, sanoatda 17,4, qurilishda 16, avtotransportda yuk tashishda 10,6, chakana savdoda 8,7, tashqi savdo aylanmasida deyarli 6,0 hamda yo'lovchi tashishda 3,2 martaga, qishloq xo'jaligida esa 2 martaga oshgan.

Kichik biznesning tarmoq rivojlanishi ayniqsa qurilish, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish, chakana savdo, avtotransport xizmatlari (yuk va yo'lovchi tashish) sektorlarida alohida o'rin tutadi. Mazkur tarmoqlarda kichik biznesning yalpi mahsulot va xizmatlar hajmidagi ulushi 2000-2010 yillarda qurilishda 1,6, yuk tashishda 11,8, yo'lovchi tashishda 2,3 martaga oshgan. Chakana savdo (101,3 %) va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish (108,6%) sohasida esa deyarli o'zgarishsiz qolgan. Ayni chog'da yuqoridagi tarmoqlardan farqli ravishda sanoatda bu ko'rsatkichning pasayishga moyilligi kuzatiladi: kichik biznesning

tarmoq yalpi mahsulotidagi ulushi 2001 yilda oldingi yilga nisbatan 9,5%ga, 2004 yilda 30,0%, 2005 yilda 6,0% va 2006 yilda 9,4%ga pasayib borgan.

90-yillar boshlarida yuzaga kelgan bozor taqchilligi sharoitida iste'mol bozorlarini milliy tovar va xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqarishni mahalliyalashtirish, qishloq joylarida kichik sanoat korxonalarini, infratuzilmalar tizimini barpo etishga alohida e'tibor qaratildi. Bu ayni paytda ikkinchi bir muammoni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat, ya'ni, mehnat resurslaridan (birinchi galda qishloq aholisi bandligida) samarali foydalanish, qolaversa, qishloq aholisi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarga mos bo'lib, natijada chakana savdo, pullik xizmat ko'rsatish, transportda yuk va yo'lovchi tashish sohalaridagi talabning o'sishi kichik biznes rivojlanishiga turtki berdi. Agar 2000 yilda mintaqada jami 55,8 mlrd. so'mlik pullik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, bu qiymat, 2003 yilda 165,5, 2005 yilda 335,3, 2008 yilda 967 mlrd. so'mga teng bo'lgan. SHundan kichik biznes sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2000 yilda 32,0 (57,3%), 2003 yilda 109,1 (66,0%), 2005 yilda 222,9 (66,5%), 2008 yilda 612,3 mlrd. so'mni (63,3%) tashkil etgan. Bu chakana savdo hajmida 2000 yildagi 539,3 mlrd. so'mdan (shundan kichik biznes ulushi 232,7 mlrd. so'm yoki 43,1%) 2008 yilda 2928,2 mlrd. so'mga (kichik biznes ulushi 1342,2 mlrd. so'm yoxud 45,8%) oshgan. Mazkur tarmoqlarda kichik biznes rivojlanishini

- mintaqada hunarmandchilikning qadimdan taraqqiy etib kelganligi;
- aholi qo'rg'onlarining joylashuvi va demografik-iqtisodiy holati hamda ularning tarixan tarkib topgan ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashganligi;
- mintaqada aholisi turmush darajasining o'sib borishi sharoitida uy xo'jaliklari va ishlab chiqarish sektorlari iste'mol xarajatlari hajmining oshishi va takomillashuvi;
- qishloq joylariga sanoat korxonalarining kirib borishi bilan bog'liq holda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanishi va boshq.

2000-2010 yillarda avtotransportda yuk tashish hajmida kichik biznes ulushi

8,4 foizdan 62,7 foizga yetib, yalpi tashilgan yuk hajmidagi ulushi yiliga o'rtacha 22,5 foizga oshib borgan. Avtotransportda yo'lovchi tashishda kichik biznes sektori hissasiga 2000 yilda 231,4 mln. kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsaktich 736,3 mln. kishiga yetdi yoki 3,2 martaga ko'paygan. Jami tashilgan yo'lovchilar hajmida kichik biznesning hissasi 2000 yilda 26,5 foizni, 2003 yilda 41,1, 2005 yilda 55,3, 2008 yilda 73,9 foizni tashkil qilgan. Tahlil davrida kichik biznes ulushining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 14,0 foizga teng bo'lgan. Ayni paytda mintaqada kichik biznes sektorida ko'rsatilgan transport xizmatida nodavlat mulk shakllarining ulushi 97-99 foizni, Namangan viloyatida esa 100 foizni tashkil qilib, bu o'z navbatida kichik biznesning tarmoq rivojlanishida xususiylashtirish omilining o'ziga xos o'rnini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, joriy asrning ilk o'n yilligi milliy iqtisodiyotda modernizatsiyalashtirish va erkinlashtirish davri sifatida e'tirof etiladi. Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar tarkibida korxonalar, xo'jaliklar va aholining o'z mablag'lar hajmining o'sishi mazkur davrning o'ziga xos belgisi sifatida namoyon bo'lib, qurilish bozorining rivojlanishiga, injenering xizmatlariga talabning keskin oshishiga olib keldi. Bundan tashqari o'tgan asrning 90-yillar ikkinchi yarimidan iqtisodiyotning qator sektorlari bo'yicha qabul qilingan davlat investitsiya dasturlari hamda ularning keyingi davrda izchil davom ettirilayotganligi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bu bir tomondan, ichki bozorda qurilish materiallari baholarining, ikkinchi tomondan esa, injenering xizmatlari hamda sohadagi xo'jalik sub'ektlari sonining sezilarli darajada oshib borishiga olib keldi.

Agar 2001 yilda Farg'ona mintaqasida jami 92,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, shundan kichik biznesning ulushi 45,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2005 yilda tarmoqda yalpi bajarilgan ishlar hajmi 220,6 mlrd. so'mga, kichik biznesning ulushi esa 65,6 foizga teng bo'lgan. 2011 yilda esa qurilish setkorida jami 517,7 mlrd. so'mlik ishlar bajarilgan. Bu 2001 yilga nisbatan 5,6 martaga, 2005 yilga nisbatan 2,4 martaga ortiqdir. Ushbu yilda injenering bozorida kichik

biznes sub'ektlari tomonidan 405,7 mlrd. so'mlik ish bajarilib, bu 2001 yil ko'rsatkichlariga nisbatan 9,7 martaga, 2005 yilga nisbatan 2,8 martaga ko'pdir. O'rganilayotgan davr mobaynida tarmoqda kichik biznesning ulushi yiliga o'rtacha 7,1 foizdan o'sib borgan.

Mamlakatda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar hamda uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosati tizimida tarmoqlararo rivojlanish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya, bozor infratuzilmalari sohalari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik tarmoqlar sifatida baholanadi. SHuhbasiz, bu borada qishloq xo'jaligi ham alohida o'rin egallaydi. Mamlakat qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi butun islohot yillari davomida izchil amalga oshirilib kelinayotgan davlat agrar siyosati bilan chambarchas bog'liq. Farg'ona mintaqasi agrar sektorida kichik biznes rivojlanishi boshqa tarmoqlarga nisbatan sezilarli ravishda farq qilib, ko'p yoqlama xarakterga ega. Bunda, **bir tomondan**, davlatning majmuaviy qo'llab-quvvatlash siyosatining faolligi kuzatilsa, **ikkinchidan**, asosiy mahsulotlar bo'yicha davlat buyurtmasi hamda qat'iy o'rnatilgan narx siyosati, shuningdek, resurslar taqsimotida limit tizimining saqlanib qolinayotganligi tarmoqda erkin raqobat munosabatlari rivojlanishining oqsashiga sabab bo'lmoqda. **Uchinchidan**, har qanday kichik biznes sub'ekti o'z rivojlanish jarayonida doimo yiriklashuvga intilib boradi. SHunga ko'ra bugungi kunda amalda bo'lgan fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini kengaytirish siyosati sohada ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishni ko'zda tutish bilan bir qatorda, kichik biznes tabiati bilan o'zaro uyg'unlikka ega hamdir.

Farg'ona iqtisodiy mintaqasida kichik biznes rivojlanishidagi tafovutlilik bir necha asosda yuzaga keladi:

- hududiy tuzilmalar rivojlanishidagi nomutanosiblik;

- tarmoqlar bo'yicha investitsiya jarayonining (jumladan, davlat investitsiya dasturlari) hududiy tuzilmalar va davriy oraliqlarda barqaror davomiylik kasb etmasligi;
- tarmoqlar bo'yicha o'sish dinamikasida kichik biznes iqtisodiy faolligi bilan yalpi mahsulotdagi ulushi o'rtasidagi nomutanosiblik.

Kichik biznes rivojlanish jarayonida hududiy tuzilmalar o'rtasidagi nomutanosiblik mazkur sektorning ham hududiy, ham tarmoq kesimlari bo'yicha mintaqa ichki tafovutlilikini keltirib chiqaruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Tahlil davrida mintaqa sanoat va qurilish sektori yalpi ko'rsatkichlarining respublikadagi ulushida pasayishga moyillik kuzatilsa (mos ravishda 4,0 va 15,0 % ga), pullik xizmatlar ko'rsatishda 22,0 hamda tashqi savdo aylanmasida 32,0 % o'sish ro'y bergan. Ayni paytda tanlamalardagi bu vaziyatning shakllanishida mintaqa viloyatlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlilik asosiy rol o'ynaydi.

CHunonchi, 1999-2010 yillar davomida Andijon viloyatining ulushi mintaqa sanoat ishlab chiqarishida 128,0, pullik xizmatlar ko'rsatishda 101,0, tashqi savdo aylanmasida 121,0 % ga oshgan va qurilish tarmog'ida esa 8,0 % ga kamaygan. Namangan viloyatining mintaqa ko'rsatkichlaridagi ulushi sanoatda 43, tashqi savdo aylanmasida 42 % ga kamaygani holda, qurilishda 113,0, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishda 112,0 % ga ortgan. Farg'ona viloyatining mintaqadagi ulushi barcha tanlama ko'rsatkichlari bo'yicha manfiy natijaga ega, jumladan, tahlil davrida viloyatning ulushi sanoat ishlab chiqarishida 4,0, qurilishda 2,0, pullik xizmatlar ko'rsatishda 9,0, tashqi savdo aylanmasida 22,0 % ga pasaygan.

Ayni paytda sanoat ishlab chiqarishida viloyatlar o'rtasida tafovutlilik darajasining oshib borishi kuzatiladi. CHunonchi, Andijon viloyatida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining mintaqa ko'rsatkichidagi ulushi 1999 yilda 37,5 % ni, 2004 yilda 37,4, 2006 yilda 44,0 va 2010 yilda 43,2 % ni tashkil qilgan. Namangan viloyatida esa bu ulush darajasi 1999 yilda 32,3 foizdan 2004 yilda 25,7, 2006 yilda 20,3, 2010 yilda 24,7 foizga pasaygan. Tahlil yillarida kichik biznes tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmining mintaqa ko'rsatkichidagi ulushi Farg'ona viloyatida eng past o'zgarish darajasiga ega bo'lib, 1999 yilda 32,3 foizni, 2004 yilda 32,4, 2006 yilda 35,7 va 2010 yilda 32,1 foizni tashkil qilgan.

Sanoatda kichik biznesning rivojlanishi yirik ishlab chiqarish sektori bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida istiqbolda milliy iqtisodiyot hamda uning mintaqaviy kesimlarida sanoat siyosatini ishlab chiqishda e'tiborga olishni taqozo etadi. Bunda kichik biznesning subpudratchilik, kasanachilik, butlovchi qismlar, o'rash va qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarishdagi faolligi va samaradorlik salohiyati alohida o'rin tutadi.

Keyingi yillarda sanoatda kichik biznes ulushining mintaqa viloyatlari bo'yicha notekis o'sishi kuzatilib, bunda ushbu ko'rsatkich Namangan viloyatida 22,2%ga, Andijon viloyatida 27,3%ga pasaygan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 131,0% ga o'sgan. Ayni paytda mintaqa bo'yicha kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 20,5 foizga kamaygan.

Mintaqada yuzaga kelgan bunday tafovutlilikni o'tgan yillar davomida viloyatlar sanoat ishlab chiqarishida ro'y bergan tarkibiy o'zgarishlar va tarmoq ixtisoslashuvining takomillashuvi bilan izohlash mumkin. Andijonda avtomobilsozlik majmuasining barpo etilishi, yirik hajmdagi to'qimachilik korxonalarining modernizatsiya qilinishi, Farg'ona viloyatida esa neftni qayta ishlash, qurilish materiallari, kimyo va yengil sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, ayni paytda mamlakatimizda ana shu tarmoqlar bo'yicha kichik biznes sektorini rivojlantirish sezilarli darajada oqsayotganligi mazkur viloyatlar sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes ulushining past darajada saqlanib qolinishiga sabab bo'ldi.

Namangan viloyatida esa holat boshqacharoq, o'tgan yillar davomida viloyatda sanoatning barcha tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish korxonalari og'ir davrni boshdan kechirmoqda. Mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati deyarli tanazzulga uchradi. Bugungi kunda viloyatda sanoatni rivojlantirish 1) xorijiy investitsiyalar ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish (asosan, to'qimachilik,

oziq-ovqat, qisman qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarida); 2) kichik sanoat korxonalari, hunarmandchilik, kasanachalikni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Kichik biznesning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichi orqali alohida tarmoqlar hamda asosiy umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha kuzatiladigan iqtisodiy o'sish hajmida kichik biznesning real ishtirokini aniqlash imkoniyatiga ega bo'linadi. Chunki, amaliyotda keng qo'llaniladigan yalpi hajmdagi ulush ko'rsatkichi ayni bir vaqt birligi uchun hisoblanadi hamda shunga ko'ra ro'y bergan hodisa va jarayonlarni yetarli darajada ifodalay olmaydi.

Mintaqaning tadbirkorlik muhiti mazmunan shu mintaqada tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, omillari majmuini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda Farg'ona iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muhiti quyidagi shart-sharoit va omillar ta'siri ostida shakllangan. Jumladan, bu tadbirkorlik muhiti omillarini quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatish mumkin: siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-demografik, moliyaviy-iqtisodiy, tabiiy-ekologik, ma'naviy-psixologik va sub'ektiv-psixologik omil guruhlari. O'z navbatida mazkur omillar tadbirkorlik muhiti takomillashuvidagi xilma-xil zaruriy shart-sharoitlarni yuzaga keltirib chiqaradi.

2.3. Istiqbolda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlanishidagi mavjud muammolarning yechimini topish va istiqbollashtirilayotgan ko'rsatkichlarni ta'minlash, ushbu sohada tadbirkorlik faolligini oshirishning yo'nalishlarini aniqlash va ular bo'yicha chora tadbirlarni belgilashni talab etadi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faolligini oshirish uchun quyidagi umumiy sharoitlar ta'minlashi zarur:

- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash negizida uni barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllanishi ta'minlash;
- tadbirkorlikni davlat tomonidan qullab – quvvatlash tizimini, uning mexanizmlarini takomillashtirish asosida rivojlantirib borish;
- xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni samarali harakat qilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlikni huquqiy-meyoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta'sirida ruy berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish;
- davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash mexanizmlarini samaradorligini oshirish, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni mavjud sharoitlarga moslashtirgan holda amaliyotga qo'llash;
- kichik biznesda ishlab chiqarishni tashkil etishni moddiy ta'minotini takomillashtirish;
- tadbirkorlikni tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish;
- tadbirkorlik sohasi uchun malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;
- tadbirkorlikda kooperatsiyani chuqurlashtirish.

Tadbirkorlikni ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishda kichik biznesni rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o'rganish va uni mamalkatimiz sharoitlariga tatbiq etish muhimdir.

Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra Italiyada yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi 3-5 foizni tashkil etadi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya va Frantsiyadan keyin 5-o'rini egallaydi. Bu davlatda kichik biznesning o'ziga xos xususiyati shundaki, yirik firmalarda ishlash bilan birga o'rindoshlik bo'yicha kichik va hunramandlik korxonalarida ham mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. SHuningdek ishlab chiqarish

tuzilmasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri kooperativ (shirkat) sektoridir. Korperatsiya shakli mamlakat tashqarisida «sanoatlashtirishning italyan modeli»dir. Bunday sanoat okruglarining samaradorligi shundaki, ular mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalana oladilar. Buning natijasida korxonalar bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ladi, jumladan:

- korxonalararo munosabatlar moslashuvchanligi yuzaga keladi;
- korxonalarga tashkilot, uyushmalar va institutlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga oid ma'lumotlar olish imkonini beradigan aniq axborot tizimi yuzaga keladi;
- milliy mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqishda kichik korxonalar yetakchi mavqega ega bo'ladi;
- tarmoq usulida tashkil etilgan kichik ishlab chiqarish kooperativlarida bandlik yuqori darajada bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar tadqiqotlariga ko'ra Italiya iqtisodiyotida turli sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalarni texnologik jihatdan birlashtirish tashkiliy shakli «konstellyatsiya»¹ ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Bunda bir-biriga bog'liq bo'lgan, murakkab tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda cheklangan miqdordagi korxonalar birlashib faoliyat yuritadi. Bunday tashkiliy shaklda birlashgan korxonalarning biri mahsulot tayyorlash jarayonini bajarsa, ayrimlari texnologik jarayon uchun mas'ul bo'ladigan, ba'zilar esa savdo bilan shug'ullanadilar. Natijada nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish muammosi hal bo'ladi, shuningdek, ishlab chiqarish ko'lami ham kengayadi. Bunday jarayonda yetakchilikni konstellyatsiyada oxirgi bosqichdagi ishlarni bajaradigan korxona amalga oshiradi. Ular boshqa firmalardan barcha kerakli butlovchi qismlarni sotib oladi va lurga tarli ishlar bo'yicha buyurtmalar beradi.

Demak korxonalardagi faoliyatning muvofiqlanishuvi yuzaga keladi. Turli konstellyatsiyalarda hamkorlik qilish, bozorda ma'lum bir mahsulot turiga bo'lgan talabning kengaytirilishi va erkin raqobat muhiti yaratiladi, shu bilan birga

¹ «constellazione» – yulduzlar turkumi demakdir

mahsulotning tannarxi va uning narxi pasayishiga olib keladi.

Fikrimizcha, Italiya Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishning bu tashkiliy shakli O'zbekistonda ham mavjud xususiyatlar asosida foydalanish mumkinligini e'tirof etmoqchimiz. Chunki bois konstellyatsiya usulini O'zbekiston amaliyotida ham qo'llash, tadbirkorlikda afzalliklar yaratadi, bular:

- korxonalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;
- texnologik jihatdan murakkab bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi;
- korxonalarning ishlab chiqarishda raqobatbardoshligini oshiradi;
- marketing tadqiqotlarini o'tkazishning realligini ta'minlaydi.

Samarali eksport faoliyatini amalga oshirishlari uchun tashqi bozor talablariga to'liq javob beradigan marketing majmuasi axborotlari bilan ta'minlangan bo'lishlari zarur. Bozorlarning o'ziga xos salohiyati va bozor kon'yukturasidagi o'zgarishlar bo'yicha joriy axborot tizimiga, kompaniyalarning barcha resurslari bevosita savdo faoliyatiga qaratilgan va asosiy xaridorlar bilan doimiy aloqa o'rnatiladigan tashkilotlar bu eksport savdo kompaniyalaridir. Jahon amaliyotida eksport faoliyatini tashkil etishning chet ellarda savdo uylarini ochish shakli ham tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning shakli sifatida keng tarqalgan.

O'zbekiston savdo uylarining chet ellarda tashkil etilishi mahalliy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar eksport faoliyati samaradorligining oshishiga ham imkoniyat yaratadi. Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida savdo vositachilari ko'mak beradi va hamkorlar va xaridor topishga dastlabki imkoniyat yaratiladi.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini va xorijiy tajribani o'z ichiga qamrab oluvchi O'zbekiston Respublikasida keyingi tadbirkorlik sektorini yanada rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Uni

ishlab chiqish jarayonida quyilagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim:

Birinchidan, tadbirkorlik shakllanishida va rivojlanishida tadbirkorlik mehnat unumdorligi va tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi umumiy bog'liqlik omillaridan, avvalombor, "Vaqtdan unumli foydalanish" (yildan yilga ijobiy natijalarga erishish), "Ishlab chiqarish uzluksizligi yoki davomiyligi" (mavsumiy ishdan ko'ra ko'p yillik faoliyat afzalligi) va "Samaradorlik" (naflilik) kabi ko'rsatkichlarga e'tibor berilishi zarur. Ikkinchi omil ko'proq kichik biznes sub'ektlariga taaluqlidir.

Ikkinchidan, kishilarning mehnatga yangicha munosabati (mulk hissi, boyish istagi, yaratuvchanlik va h.k.) mehnat faoliyati ijod, aql va tafakkur orqali amalga oshadi (ayniqsa, kichik biznes uchun), mehnatga oqilona munosabat (ko'proq fermer xo'jaliklarida) tadbirkorlarining ma'naviy-aqliy shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorning boy ma'naviy qiyofaga ega bo'lishni, bilim-malakasini oshirishni o'z faoliyatiga yangicha qarashi va ishini oqilona tashkil etishini zaruriy maqsadga aylantiradi.

Uchinchidan, har bir tadbirkor o'z faoliyatini samarali tashkil etishda mehnat bozorining ishchi kuchiga bo'lgan talabi va tadbirkorlik qobiliyati xususiyatlarining umumiyligida, avvalombor, "ijodkorlik" (innovatorlik), "ishchanlik", "yaratuvchanlik" (bunyodkorlik) kabi xususiyatlarga ijobiy, ustivor munosabatda bo'lishi talab etiladi.

SHuningdek, tadbirkorlik faolligini baholashda quyidagi mezon-ko'rsatkichlar ketma-ketligi (afzaliy qatori) tavsiya etiladi:

- Mahsulot (ish, xizmat) sifatining yaxshilanishi;
- Ilg'or texnika va texnologiyadan foydalanish darajasi;
- Raqobat muhitini shakllantirishdagi hissasi;
- Mehnat samaradorligi orqali ijtimoiy-adolatli taqsimotga erishishi;
- Yangi ish o'rinlari yaratishi.

To'rtinchidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda, aholi bandligini oshirishda yangi ish o'rinlari barpo etishning samarali yo'li hisoblangan

tadbirkorlik faolligi uning tarkibiy turlari bo'yicha afzallikka ega ekanligi inobatga olinishi darkor.

Beshinchidan, hududlarda tadbirkorlik rivojlanishining o'zgarishi va ta'sir doirasini baholovchi ijtimoiy-iqtisodiy monitoring yaratish zarur bo'lib, unda, avvalombor, quyidagi ko'rsatkichlar o'z aksini topishi taqozo etiladi:

- doimiy yashovchi aholi soni, ming kishi;
- aholini o'rtacha yillik daromadining o'zgarishi, %;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni;
- tadbirkorlikning viloyat (shahar, tuman) yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi, %;
- tadbirkorlik orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;
- tadbirkorlik sohasi xodimlarining o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishi, %;

Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy monitoring ko'rsatkichlari orqali mamlakatda tadbirkorlik faolligi darajasi o'rganiladi va tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi va istiqbol dasturini ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

Xulosa o'rnida ishonch bilan aytish mumkinki tadbirkorlikni o'sishi bilan biz mamlakatimizda tayanchimiz bo'lgan mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilishga erishamiz. Tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim bo'g'inga aylanadi. Iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning eng muhim omili, jamiyatimiz ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan olg'a yetaklaydigan faol harakatlanuvchi kuchi sifatida amal qiladi.

Xulosa

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari chuqurlashuvi hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muhim vazifalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Chunonchi, mazkur vazifa ustuvorligi

- hudud iqtisodiy mustaqilligining mustahkamlanishi;
- hudud aholisi daromad darajasini oshirish va shu orqali aholining turmush darajasini ko'tarish;
- aholining ish bilan bandlik darajasini, tadbirkorlik faoliyatini oshirish;
- hududda bozor munosabatlarini tezroq va chuqurroq qaror toptirish, bu borada qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitni barpo etish;
- hudud mahalliy bozorini ichki resurslar hisobiga to'yintirish hamda hududning eksport salohiyatini oshirish va boshqa shu kabilarda namoyon bo'ladi.

Albatta, bu boradagi asosiy mas'uliyat yirik ishlab chiqarish tuzilmalari hissasini va ahamiyatini inkor qilmagan holda ko'p jihatdan kichik va xususiy biznes zimmasiga tushayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Ayniqsa bu borada o'ziga xos xo'jalik tuzilmasiga ega bo'lgan Farg'ona iqtisodiy rayoni hududiy birliklari rivojlanishida tadbirkorlik muxitining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Ayrim ishlab chiqarish tarmoqlari bir muncha oqsayotgan bunday hududlarda bugungi kunda barcha jabhalarda o'zining ijobiy natijasini berishi uchun tadbirkorlik muhitining rivojlanishi va bu asosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishda o'sish kuzatilayotganligi ham yuqorida bildirilgan mulohazalarimizni ifoda etadi.

SHu nuqtai nazardan Farg'ona iqtisodiy rayoni va uning viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini shakllantirish doimo diqqat e'tiborda bo'lmog'i maqsadga muvofiq.

Umuman olganda ishning yuqoridagi boblaridan ko'rinib turibdiki, Farg'on iqtisodiy rayonida tadbirkorlik muhitini rivojlantirish salohiyati yuqori bo'lib,

faqat ana shu salohiyatni oqilonalik va tadbirkorlik bilan yo'lga qo'yish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi Qonuni. T.: «Xalq so'zi» gazetasi, 1995 y, 21 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi isloxlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy xujjatlar to'plami. I-tom. -T.: O'qituvchi. 1998. 416 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. -T.: «O'zbekiston», 1999 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3706-sonli Farmoni. «Namangan haqiqati» gazetasi, 2006 yil 6 yanvar
5. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993 yil, 108.b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.- T.: «O'zbekiston», 1995, 240.b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: "O'zbekiston", 1999y. 12-bet.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009 y.
9. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. // 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. – T.: “Xalq so'zi” gazetasi, 2011 yil, 22 yanvar.
- 10 Karimov I.A. “2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” // 2012 yil 19 yanvardagi 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://www.gov.uz>
 - 11 Abdullaev O. Namangan viloyati. Namangan, 1994 y.
 - 12 Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. Namangan, 1999 y.
 - 13 Abdullaev O., Ismoilov R. Kichik va o'rta biznesni boshqarish. – Namangan, 2001. -115 b.
 - 14 Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savol va javob. T.: «Mehnat», 2000.
 - 15 Axmadaliev YU. I., Omonov A. S. Qishloq joylardagi demografik jarayonlar va ularning er bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichiga ta'siri // O'zbekiston GJ axboroti, 27-jild.- T., 2006. – B. 112-115.
 - 16 Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2002.-224 b.
 - 17 Zarubejnyy opyt podderjki malogo i srednego predprinimatel'stva. NP "Moskovskiy tsentr razvitiya predprinimatel'stva". Manbaa: <http://www.giac.ru>
 - 18 Zarubejnoy opyt podderjki malogo biznesa. Manbaa: www.frmp.kz/userfiles/file/posobie1.doc
 - 19 Zyablyuk N.G. Gosudarstvo i malyy biznes SSHA. Sotsialno-politicheskiy aspekt. M.: Nauka, 1987. 26-st.
 - 20 Mirzaeva SH.M. va boshq. O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlikning rivojlanishi. Toshkent. 1999 y.

- 22 Kurs predprinimatel'stva. /Uchebnik dlya vuzov. –M.: «Finansy», YuNITI, 2001
- 23 Lebedova S.Yu. Regulirovanie i podderjka malogo i srednogo predprinimatel'stva v YeS i Rossii. Manbaa: <http://www.dis.ru/mang/arxiv/2001/1/6.html>
- 24 Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati.-T., 2000.-87 b.
- 25 Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlari statistika boshqarmalari materiallari. 2005-2011 yillar.
- 26 Rossiyskoe obozrenie malyx i srednix predpriyatiy 2001. – M., 2002. Copyright by European Commission. Manbaa: Resursnyy tsentr malogo predprinimatel'stva <http://www.lib.rcsme.ru>
- 27 Soliev A., Abdunazarov H. Aholi o'sishi va xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishning hududiy xususiyatlari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.-T., 2003. №1-2, b. 50-53.
- 28 Soliev A.S., Ahmedov E.A. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma-T.: Universitet, 2003.-304 b.
- 29 Soliev A., Mirzaahmedov H., Jumaxanov SH. Qo'shma korxonalar geografiyasi. Monografiya.-Namangan., 2006 y.-136 b.
- 30 Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T.: Ziyo, 1999.-181 b.
- 31 Soliev A., Qarshiboeva L. Sanoat ishlab chiqarishning mintaqaviy muammolari (Sirdaryo viloyati misolida). Guliston, 2001-98 b.
- 32 O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. /ilmiy tahliliy jurnal, -T.: 2005 yil, № 3-4.
- 33 Egamberdiev E., Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: TMI, 2003
- 34 G'ulomov S.S. Tabirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998

Internet manbalari

- 35 <http://www.tfi.uz>
- 36 <http://www.cer.uz>
- 37 <http://www.gov.uz>
- 38 <http://www.ziyonet.uz>
- 39 <http://www.rea.uz>
- 40 <http://www.humanities.edu.ru>
- 41 <http://www.rcsme.ru/lib.asp>
- 42 <http://www.i-u.ru>